



## XAYRIDDIN SULTONNING “IKKI KARRA QAHRAMON” HIKOYASIDA SYUJET YARATISHDA XARAKTER

**Muallif:** Matyakubova Go‘zal Saliyevna <sup>1</sup>

**Affiliyatsiya:** Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti  
mustaqil tadqiqotchisi <sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.20232829>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek nasrining ko‘zga ko‘ringan faol adiblaridan biri Xayriddin Sultonning “Ikki karra qahramon” hikoyasi tahlil qilingan. Yozuvchining aksariyat hikoyalari kabi “Ikki karra qahramon” hikoyasi ham qahramon ruhiy holatlari tasviriga boy. Biz ijodkorning o‘ziga xos uslubiga ham diqqat qaratdik. Hikoya qahramoni Muhammadkamolning boshidan o‘tkazgan voqealari vositasida adib uning xarakteri va oilaviy munosabatlardagi konfliktlarga munosabatini tasvirlaydi. Yozuvchi hikoyada bir vaqtning o‘zida ijtimoiy, psixologik va hissiy dramani yoritishga erishganligi maqolada o‘rganildi.

**Kalit so‘zlar:** Syujet yaratish, xarakter, ekspozisiya, roviy, Xayriddin Sulton.

“Hikoyaga material tanlay bilishning o‘ziga xos xususiyatlari bor. Yozuvchi juda ko‘p, boy va hayotiy materialni o‘rgangan, uni egallagan bo‘lishi mumkin. Ammo bu bilan ish bitmaydi. Hamma voqealarni asarga kiritaverish g‘oyaviy tarqoqlikka olib keladi. Bu o‘rinda ijodkorning muhimni nomuhimdan ajrata olishi katta ahamiyatga ega. Aslida novellist mahorati asar g‘oyasigagina xizmat qiluvchi materialni chegaralab olishi bilan baholanadi. Mashhur fransuz yozuvchi Bualo aytganidek, hayotiy materialni asarga kiritishda yozuvchi o‘zini jilovlamaguncha yozuvchi bo‘lolmaydi”[1:71]. Xayriddin Sulton “Osmoni falaklarda” kitobiga kiritilgan hikoyalarni yaratishda ana shu jihatni nazardan qochirmaganini ko‘rishimiz mumkin. Kitobdan uchta hikoya o‘rin olgan, “har uch hikoya ham ruhan, ham jisman “osmon odamlari” – uchuvchilar hayotidan”[2:6]. Uch hikoya - “Ikki karra qahramon”, “Osmoni falaklarda” va “Bir kishilik aviahalokat”da garchi turli sharoitdagi turfa qahramonlarning bir-biriga o‘xshamagan taqdirlari tasvirlansa ham, ifoda uslubi o‘zaro farqli bo‘lsa ham, ularni “osmon odamlari” ekanligi mantiqan bir-biriga bog‘lab turadi. Adabiyotshunos Nurboy Jabborov o‘zining “Halolning tomiri tog‘day, yohud milliy hikoyachiligimiz yutug‘i” maqolasida “... hikoyalarning mohiyatan yaqinligi sababi mavzuning uchuvchilar hayotidan olingani bilangina bog‘liq emas. Ularni birlashtirib turuvchi muhim xalqalardan biri hikoyalarda xalqimiz tiynati va dunyoqarashi asosini tashkil etuvchi halol va harom tushunchalarining inson qismatida tutgan o‘rni tasviriga urg‘u berilganidir. E‘tiborli jihati, ushbu urg‘u muallif tilidan ta‘kidlanmay, asarning ichki badiiy mantig‘idan anglashiladi. Mazkur tushunchalar qahramonlar hayot tarzi, ruhiyati, kechinmalari va taqdiri bilan aloqadorlikda yuksak darajada badiiy talqin etiladi”[3:], deya ta‘kidlaydi. Adabiyotshunosning fikrlarini inkor qilmagan holda, biz hikoyalarni bir-biriga mantiqan bog‘lab turgan xalqa har qanday og‘ir sharoitda ham

o'z e'tiqodi, sharafidan voz kechmagan, qiyofasini o'zgartirishga rozi bo'lmagan "osmoniy insonlar"ning jasorati hamda o'z qalbiga va vijdoniga sadoqatidir, deya ta'kidlamoqchimiz. Biz buni Muhammadkamol Otaboyevning jonu jahoni jigarbandining taqdiri zavoriga guvoh bo'lganida, Rashod Shamshevtovning boshiga g'avg'olar yog'ilishini bilsa ham uchuvchining ko'z oldida xor bo'lishiga yo'l qo'ymaganida, Iskandar Isroilovning uni o'ldirishi muqarrar xiyonatdan keyin ham kasbiy burchini ado etishga kuch topolganida, Sadafning esa Iskandarning kelajagi uchun o'zining bor dunyosidan kecha olishdek qahramonligida ko'rishimiz mumkin.

Hikoyalardagi qahramonlar bir soha odamlari bo'lsa ham turli muhit va sharoitdagi taqdiralar egasi. Adib "asar syujetiga o'zi yaxshi biladigan, hayotda ko'rgan, kuzatgan, mukammal o'rgangan voqealarni asos qilib oladi. Qahramon tanlashda ham aynan shu yo'ldan boradi. Hikoyalarda voqealar tafsilotidan ko'ra unga nisbatan adibning tahliliy munosabati ustunlik qiladi. Yozuvchining ayrim hikoyalarda syujet voqealari keskin rivojlanadi, u kitobxonning qiziqishini oshiradi, unda syujet unsurlari aniq tasvirlanadi, ayniqsa, yechim salmoqli ahamiyatga ega bo'ladi"[4:108]. Adib kitobdan o'rin olgan "Ikki karra qahramon" hikoyasiga nafaqat o'zi kuzatgan voqealarni asos qilib oladi, balki tipik qahramonni ham tanlaydi. Ahamiyatli jihati bu hikoya o'zbek hikoyachiligidagi uchuvchilar hayoti haqidagi ilk asar bo'lib, voqea roviy, ya'ni uchuvchining do'sti tomonidan hikoya qilinadi. Muallif roviylikka nega aynan do'stini tanlashida ham katta ramziy ma'no bordek. Qahramonning hayoti do'sti tomonidan hikoya qilinishi, Muhammadkamol Otaboyevning do'st bo'lsa arziydigan xislatli inson ekanidan darak beradi. Xalqimizda do'st tanlashga alohida ahamiyat qaratiladi. Do'stim degan insoning qanchalik sadoqatli, e'tiborli, tadbirli, pok va aqlli bo'lishi munosabatlarni shunchalik samimiy va mustahkam bo'lishiga sabab bo'ladi. Roviya esa do'stiga nisbatan yuksak ehtiromda ekani uning hikoyasidan anglashiladi. Demak, hikoyaga qahramon qilib tanlangan Muhammadkamol Otaboyev haqiqatdan ham mard va jo'mard odam.

Hikoya ekspozitsiyasida uchuvchi qahramonning badiiy tasviri chiziladi. Hikoyaga qahramon sifatida tanlagan Muhammadkamol Otaboyev o'zining kasbini chin dildan yaxshi ko'rgan inson. Uning mohir uchuvchi sifatida sifatleri bir necha ta'sirli va ahamiyatli voqealar misolida tasvirlanadi. Unga ekstremal sharoitda havo kemasini boshqarish chog'ida ko'rsatgan katta jasorati uchun Qahramon unvonini berishgan. O'shanda Toshkentdan Nyu Yorkka uchgan uchuvchi "Boing -757"da uchib, yoqilg'i quyish uchun Angliyadagi Bermingem aeroportiga qo'nib o'tadi. Biroq bu shaharga qo'nishga ruxsat bo'lmagach, ekipaj komandiri sifatida juda qiyin sharoitda Kanadaning AQSH bilan chegarasi yaqinidagi Heppi-Velli shahri atrofida joylashgan Ges-Bey harbiy aerodromiga eson-omon qo'ndiradi. O'zi ham hech narsani anglamagan uchuvchiga dastlab e'tiroz bildirgan ayrim yo'lovchilar aerodrom binosidagi ekran orqali haqiqiy ahvoldan xabardor bo'lgach, dir-dir titrab, naqd o'limdan asragani uchun unga minnatdorlik bildiradi. Bularning hammasi AQSHda 2001 yil 11 sentyabr sanasida yuz bergan voqealar sabab edi. Ana shu parvoz chog'ida bir yuz to'qson yo'lovchi va o'n bir nafar ekipaj a'zosining hayotini va samolyotni asrab qolgani uchun unga Qahramonlik unvoni berilgan. Faqat shuning o'zi emas. Butun dunyoni koronavirus balosi zabt etgan vaqtda Muhammadkamol hayotini xavf ostiga qo'yib, Piterdan yuzlab odamlarni samolyotda O'zbekistonga olib kelgan. Ular bilan birga o'zi ham bir oy karantinda o'tirgan. Yozuvchi bularni roviy-uchuvchining do'sti tilidan qiziqarli va jozibali tilda ifodalaydi. Muhammadkamol Otaboyev nafaqat kasbiga sadoqatli, balki oilasiga ham sadoqatli ekanini uning oilasi

haqida har doim qayg'urishi, hatto kuyovlarigacha sovg'a-salomlar ko'tarib yurishida ko'rsatadi. Uning oilasi uchun qilayotgan harakatlari barobarida voqealar rivoji ham ilgari lab boradi. Ayniqsa, uning kuyovi bo'lmish SHERALINI tilidan bol tomib maqtashi, uni o'g'lidan ham ziyod ko'rishini ko'rsatadi. Ayniqsa, buni SHERALI uchun italyan cha kostyum-shim olishida, erinmay qizidan kuyovini razmerini so'rashi, kichkina o'lchamdagini olib qo'ygani uchun boshqatdan magazinga borib almashtirib kelishi – bularning hammasi bir otaning oilasiga bo'lgan sadoqati va mehridan darak beradi. Shu o'rinda muallif roviy va qahramon monologidan ham unumli foydalangan. Roviylardan hazillashib, "shu SHERALIDAN oy ko'rganmisiz, kuyov baribir kuyov – yov-da", deyishi. Do'sti esa unga: "siz buni tushunmaysiz, chunki hali qiz uzatmagansiz. Bittayu bitta qizim shu xonadonda, shu bolaning qo'lida "zalojnisa" bo'lsa, men nima qilay?", deya javob berishi. Unga javoban roviyning "to'g'ri qilasiz, kuyovni payg'ambarlar ham siylagan", deya yon berishida birinchidan ikki do'stning o'zaro samimiy suhbatini orqali o'zbekona mentalitetimizga xos nozik jihatlarga ishora qilinsa, ikkinchidan xalq tilidagi kun-kunora gapiriladigan xalqona maqol va iboralardan mohirona foydalangan. Shu diolog orqali qahramonning qay darajada hokisor va mehribon inson ekanini tasvirlaydi. Bu kelgusida syujetning rivojlanishida o'z aksini topadi.

Muhammadkamol Otaboyev Bankokdan kechasi Toshkentga uchadi. Nimadir ishi bilan samolyot saloniga chiqadi. Chiroqlar o'chirilgani sabab, g'ira-shirada illyuminator tomonga qarab o'tirgan yigit va qizdan boshqa hamma uxlayotganini ko'radi. Bir-biriga suyanishgan yoshlarni esa kelin-kuyov xayol qiladi. Samolyot etagiga borib qaytayotganida esa sharmandali holatga guvoh bo'ladi. Uchuvchi hikoya ekspozitsiyasida ma'lum ma'noda tayyor xarakter bilan tasvirlangandi. Uning fitratida harom ishlarga bo'lgan rag'bat yo'qligi qaysidir ma'noda urg'u berilib ketilgan. Syujet ham uning xarakteridan kelib chiqib rivojlanadi. U halol – pok inson bo'lgani uchun, yoshlarni tartibga chaqirmoqchi bo'ladi. Vaholanki, uning bu maqsadi uning xarakteridan kelib chiqib rivojlandi. Maqsad esa uni harakatga keltirdi. Harakat orqasidan esa bu naqs bosgan erkak kuyovi SHERALI ekanini ko'radi. Shu yerda qahramon xarakteridagi yana bir qirra, ya'ni uning halim, bosiq, mulohazakorligi ochiladi. Bu jihat esa syujetning qay tomonga yuz tutishini belgilab bergan. Agar qahramon to'pori va jahlni jilovlay olmaydigan inson bo'lganida xayoliga kelgan "avariya eshigini ochginda, bu naqs bosganlarni samolyotdan uloqtirib tashla, alamingdan chiq" degan buyruqqa bo'ysungan, ularni samolyotdan uloqtirgan bo'lardi. Bu holatda syujet voqealari o'zgacha tus olardi. Biroq Muhammadkamol kuyovining betiga qarab "Tuf betingga, haromi!", deya tuflashdan nariga o'tmaydi. Adib bu yerda xalqimiz orasidagi "Mingni yenggan emas, o'zini yenggan inson mard", degan maqolni matn ostiga yashirib ketadi. Muhammadkamolni qanchalik kuchli inson ekanini shu bilan yana bir bor ta'kidlaydi. Muhammadkamol ruhiy zo'riqish va sog'ligining yomonlashishiga qaramay o'z kasbiy vazifasini muvaffaqiyatli bajaradi. Voqeani eshitgan do'stining unga tasalli berib aytgan "Да, ты настоящий герой! Дважды герой", degan gapiga "Да, пожалуй, но второй раз - посмертно", deb javob beradi. Adib bu bilan sadoqatli insonlar xiyonatdan keyin ruhan tirik qolmasligiga, to'g'rirog'i qololmasligiga urg'u bergan. Muhammadkamolning xarakterini chizish orqali hikoya syujetini mukammal yaratgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nazarov B tahriri ostida. Adabiy turlar va janrlar. 3 jildlik, 1-jild. Epos. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1991. – 383 b.
2. Sulton X. Osmoni falaklarda. -Toshkent: “Adabiyot”, 2025. -165 b.
3. <https://uza.uz/ru/posts/halolning-tomiri-togday-yoxud-milliy-hikoyachiligimiz-yutugi-haqida-oylar>
4. Sopiyeva Sh. Xayriddin Sultonning hikoyanavislik mahorati. Filol.Fan.nom. diss. – Toshkent: 2006. -136 b.
5. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2005. – 270 b.
6. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: “Sharq”, 2008. – 366 b.
7. Yo‘ldosh Q, Yo‘ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: “Kamalak”, 2016. – 464 b.